

## ABDURAUUF FITRATNING “MUNOZARA” ASARIDA MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARI TALQINI

**Eshmurodova Gulhayo Orifjon qizi**

Samarqand davlat universiteti

2-bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada buyuk ma’rifatparvar, jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan biri Abdurauf Fitratning “Munozara” (Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning jadid maktablari xususida qilg‘on munozarasi) asarida ilgari surilgan ma’rifatparvarlik g‘oyalari, “usuli qadim” va “usuli jadid” maktablarining bir biridan farqi, yangi jadid maktablarining afzalliklari, Buxoro amirligining siyosiy-iqtisodiy manzarasi, aholining ijtimoiy turmush tarzi, ta’limiy-tarbiyaviy ahvoli xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** “Munozara”, Abdurauf Fitrat, Istanbul, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Buxoro, mudarris, farangi, “usuli qadim”, “usuli jadid”, ma’rifatparvarlik g‘oyalari.

Buyuk ma’rifatparvar jadid, serqirra ijodkor, yorqin iste’dod sohibi Abdurauf Fitrat XX asr o‘zbek adabiyotining mashhur vakillaridan biri. Fitrat o‘zbek adabiyotini o‘zining istiqlol ruhidagi she’rlari, nasriy asarlari, dramalari hamda tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlari bilan boyitdi. Dastlab ijodini she’rlar yozishdan boshlagan Fitrat XX asrning boshlaridayoq o‘zining erk va ozodlik g‘oyalari kuylangan she’rlari bilan ijod ahliga tanilgan edi. Fitrat ijodining o‘ta semazmun pallalaridan biri, uning Istanbul davridir. 1909-1913 yillarda Turkiya dorilfununida tahsil oladi. Bu yillar mobaynida Fitrat qizg‘in badiiy ijod bilan shug‘ullanadi. Istanbulda Fitratning bir qator asarlari forsiy tilda bosib chiqiladi. Shulardan biri, 1909-yilda “Munozara” (Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning jadid maktablari xususida qilg‘on munozarasi) asari bosildi. Bu asar jadidchilik harakati rivoji yo‘lidagi ilk nazariy asardir. Bu asarda tarixiy taraqqiyotning ikki pog‘onasida turib qolgan din va dunyo, jamiyat va ma’rifat haqida ikki xil qarashga ega bo‘lgan ikki kishining bahsi asosiga qurilgan edi. “Munozara” asari Buxoro amirligida ta’qiqlab qo‘yilishiga qaramasdan, turli yo‘llar bilan Buxoroga olib kelinib, keng tarqaladi. Dastlab “Munozara” asari 1911-yilda Hoji Muin Shukrulloh o‘g‘li tarjimasida “Turkiston viloyatining gazetasi” da, bosib chiqilgan, keyinchalik esa, 1913- yilda Behbudiy so‘zboshisi bilan alohida kitob holda nashr qilingan. Dastlab, bu asar teatrlarda ayrim qismlari tushirilgan holda sahnalashtiriladi. “Munozara” asari

Buxoro amirligi va Rossiya hukumati tomonida ta'qiq qilinishiga qaramasdan butun Turkiston o'lkasida, sharq va g'arb mamlakatlarida ham keng tarqalgan va mashhur bo'lgan. Xalqning ko'zi ochilishida muhim rol o'ynaydi. Sadridin Ayniy "Namunai adabiyoti tojik" da "Munozara" davr taraqqiyotiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatdi",- deb yozadi. Bu asarning ilk tadqiqotchisi va nashr etuvchisi Mahmudxo'ja Behbudiy bo'lgan. Behbudiy bu asarning o'sha paytdagi zamon uchun eng muhim bo'lgan xususiyatlarini ta'kidlab, shunday deydi: "Usuli jadida maktablarni nafli va fununi zamoniya tahsilining buxoriylar uchun luzumi to'g'risida farangi afandi ila mudarris buxoriy janoblarini oralarida bo'lgan bahs va suhbat- "Munozara" isminda bir risola shaklinda forsiy tilg'a tab' va nashr bo'lubdur. Bizda ko'zdun kechurdukki, haqiqatan buxoriylar uchun nofe'dir. Farangiy va mudarris tilidan bu muhim bahslik risolani tahrir etuvchi vahmi zoing'a arzi tashakkur qilarman, inshoollo, bu risola buxoriylarni uyg'onmoqig'a bois bo'lub, "Munozara" muharririni rahmat ila yod etarlar" [3]

Bu asar to'g'risida taniqli adabiyotshunos olim Hamidulla Boltaboyev yozganidek: "Ulug' yunon faylasufi Aflotun asarlari uslubida ya'ni suhbat-bahs uslubida yozilgan".[1:140] Asarning nomlanishidan ham anglashilganidek, farangi va buxorolik mudarris bahs-munozara qiladi. Munozara "usuli qadim" va "usuli jadid" maktablari xususida ketsa ham, asarda Buxoro amirligining ma'naviy- ma'rifiy, ta'limiy-tarbiyaviy ahvolidan tashqari, ziyoli ulamolar qatlamining jaholat botqog'iga botganligi, amirlik aholisining naqadar nochor, qashshoqlikda kun kechirishi, amirlikning mustamlakaga aylanib qolganligi va bularga Buxorodagi amirlik tuzumi va Rossiya hukumatining zulmi sabab bo'layotganligi farangi va mudarrisning munozarasi asosida ochib berilgan. Diniy va dunyoviy bilimga ega bo'lgan, dunyo ko'rgan, hattoki, musulmon dinidan xabardor bo'lgan farangi mudarrisning ilmsizligi, johilligidan hayratga tushib, musulmon farzandlarining taqdiri shunday mudarrislar qo'lga tushib qolganligidan afsuslanadi. Mudarrisning oddiy dunyoviy bilimlardan ham xabarsiz kishi ekanligini farangining "Sizning yurtiingizda jug'rofiyo o'qimaylarmi?"[2:47] - deb bergan savoliga mudarris: "Men bir mudarris bo'lsam, kechalari kitob ko'raman, kunduzlari dars aytaman. Qachon qo'lim tegibdiki, munday hikoyat kitoblarni o'qisam" [2:47] – deb bergan javobidan ham bilish mumkin. Mudarris dunyo sivilizatsiyasidan, taraqqiyotidan xabarsiz, hatto jug'rofiya ilmi haqida ham tasavvurga ega emas. Mudarrisning fikricha: "Hamma ilimli bo'lishi mumkin emas. Agar hamma olim bo'lib ketsa, boshqa ishlar egasiz qoladi." [2:47] Demak, hamma ilm bilan mashg'ul bo'lsa, boshqa kasblar qolib ketadi va dunyo xarob bo'ladi. Mudarrisning javobidan anglashiladiki, Buxoro ilm ahli, hatto, Qur'oni Karim oyatlari va Hadisi Sharif ma'nolaridan juda yiroqlashib ketgan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning "Ilmni chindan bo'lsa ham izlang", "Beshikdan qabrgacha ilm izlang",

“Ilm dunyoning izzati va oxiratning sharafidir” kabi hikmatlari bilan ummatlarini ilm-ma’rifatga chorlaganini ham idrok qilishga qodir emas. Madrasada 25-30 yil arab tilini o‘qib erkin gaplasha olmaydilar, hatto biror oyat, hadisni sharhlab bera olmaydilar. Qur’oni Karimni o‘qib, savobini faqat ota-onalarining ruhiga bag‘ishlashga o‘rganib qolishgan. Farangi (Farangi qiyofasida Fitratni ko‘rish mumkin) bunday holatlarni qoralaydi.

Fitrat Vatanini, xalqini ozod ko‘rishni, millatini ilm-ma’rifatli bo‘lishini xohlaydi va bu yo‘lda harakat qiladi. Jadid adabiyotida bo‘lgani kabi, Fitrat ijodida ham ayollarni yuqori o‘rinlarga qo‘yadi, ularni ilmi bo‘lishiga katta ahamiyat beradi. Ayol zoti birinchi navbatda ona, u kelajak avlodning tarbiyachisidir. Ayol kishi diniy va dunyoviy bilimlarga ega bo‘lsa, jamiyat, millat, Yurt ravnaq topadi, rivojlanadi. Afsuski, XX asrning boshlarida kelib, ayol kishiga faqat, “tavolud va tanosul”, ya’ni tug‘ish va nasl qoldirish vazifasi yuklatildi, bilim olishdan bebahra qoldi. Mudarrisning fikricha, ayol kishi 37 yoshgacha tahsil olsa, 37 yoshdan keyin ularda “silsilai tanosul” (ketma-ket nasl qoldirish) buzilgan bo‘ladi. Farangi mudarrisning bu fikrlarini inkor etib, Payg‘ambarimizning “Talab ul ilmi farizatun ala kulli muslimin va muslimatin” ya’ni “Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir” hadisini keltirib o‘tadi. Hozirgi tahsil olish usuli mushkul, ko‘p vaqt talab qilishini, nuqsonli tahsil usuli ekanligini va bunday usulni butunlay o‘zgartirish kerakligini ta’kidlaydi. Abu Ali va Farobiydek buyuk olimlarni, komil insonlarni yetishtirgan Buxoroning bugungi ahvoriga, ilmsizlik botqog‘iga botib ketayotganiga achinadi. Farangi ilmsizlik, nodonlik qachongacha davom etishini, ilm mamlakat obodligi, millat tarqqiyaotining asosiy kaliti ekanligini qayta-qayta eslatib o‘tadi. Fitrat farangi tilidan ilmning qudratini, katta kuchga ega ekanligini ta’kidlaydi: “Ildirki, Amriqo vahshiylarining qaynashini ushbu darajadagi takomul va buyuklik martabasiga yetkazgan. Ildirki, Eron zaminida ziyolilarni yo‘q qilmoqchi bo‘lg‘an ikki otni tanazzul va zillat chohiga qulatg‘an...”[2:62] Farangi Buxoro o‘tmishda mustaqil, ikki million aholiga ega ekanligini, Amir Muzaffarning mag‘lubiyatidan so‘ng, xalqi uch baravar, yer maydoni o‘n baravarga kamayib ketganligini va Rossiya mustamlakasiga aylanib qolganini, bu jaholat, g‘afolat, ilmsizlik davom davom etaversa, Buxoroning ahvoli xarob bo‘lishini aytib o‘tadi. Farangining bu so‘zlari mudarrisni ham vahimaga soladi. “Birodar, meni vahimaga qo‘ydingiz, so‘zlaringizning haybatidan jonim tan qolibidan chiqib, parvoz etib ketishiga oz qoldi. Azbaroyi xudo, ayting, bizning ilojimiz nima? Bu dardi bedavoning chorasi qaysi? Qayerg‘a boraylik? Nima qilaylik? Qaysi tuproqni boshimizga sochaylik? Qachon bu falokat holatidan va istiqbol mushkulliklaridan dimog‘imizga xalos bo‘lishlik bo‘yi yetib keladi”.[2:68] Mudarrisning bunday savollariga javoban, farangi bu jaholat, ilm-ma’rifatsizlik, g‘afolat, qaramlikdan qutilishning birdan bir yo‘li “usuli jadid” maktablarini ochish ekanligini aytadi. Bu

gapni eshitgan mudarris jazavaga tushib, bunday maktab Buxoroda ochilgani va bir yillik faoliyatidan keyin yopilib ketganini aytadi. Bu o‘rinda mudarris Buxoroda 1908-yil oktyabr oyida Sadridin Ayniy va Mirzo Abdulvohid Munzimlar ochgan birinchi “usuli jadid” maktabi to‘g‘risida gapiryapti.

Farangi bu maktablarning nimasi xarom, nimasi shar‘iyatga zid ekan? Bu maktabda tahsil olayotgan bolalar shar‘iyatga zid biror bir ish qilishdimi? Tahorat va namozda sustkashlik qilishdimi? Bu maktabda ta‘lim beradigan muallimlarning ilmi yetarli emasmi? kabi savollarga mudarris ijobiy javob beradi. Farangi “usuli jadid” maktabi “usuli qadim”dan keskin farq qilishini, ular o‘rtasidagi farqlarni birma bir sanab o‘tadi. “Usuli jadid” maktablarining afzalliklarini, vaqt kam sarf etilishini, binobarin, ayollar tahsil olishi uchun ham ayni muddao ekanligini, ayollar ta‘lim olsagina, ularning qo‘lida tarbiya topayotgan yosh avlod ham ilmli bo‘lib yetishishini aytib o‘tadi. Buxoroning jaholat botqog‘iga botib, ilmsizlik, zulm avj olib ketgan bu ahvolidan qutulishning yagona yo‘li, najot yo‘li- yangi jadid maktablarini ochib, yangi tahsil usulini joriy qilish edi. Fitrat yurtdoshlarini g‘aflat uyqusidan uyg‘onishga chaqiradi, yevropaliklar yangi-yangi kashfiyotlar qilayotganda, ular bilan qadam-baqadam harakat qilishga chorlaydi. Bularga erishish uchun ilm-ma‘rifatga keng yo‘l ochish va yangi jadid maktablarini kengaytirish zarur ekanligini ta‘kidlaydi.

Asarning xotima qismida Fitrat Buxoro amiri Said Olimxonga: “Ey, Buxoro millatining mehribon otasi! Raiyat holig‘a tushunib, rahm qilg‘in, muborak vujudingga Haq taolo tarafidan topshirilgan Muhammadning nurli shar‘iyatig‘a xizmat qilib, yiqilg‘an millatning nurli fikrlarig‘a va maorif taraqqiyotining tavsiyasiga iqdom qil”,-[2:95] deya murojaat qiladi. Fitrat Amirni xalqni, millatni zulmdan, mutelikdan, haqoratlardan, mamlakatni g‘aflat va jaholat botqog‘idan, muqaddas dinimizni turli xil tahqirlardan qutqarishga da‘vat etadi.

Fitrat mazkur asarning juda ko‘p o‘rinlarida Qur‘oni Karim oyatlari va Hadisi Sharifdan misollar keltiradi va ularning ma‘nosini sharhlaydi. Bu orqali muqaddas dinimiz bo‘lgan islomning mohiyatini to‘g‘ri, ya‘ni dinimiz ilm- fan, jamiyat rivoji, yurt ravnaqi, millat taraqqiyoti uchun to‘siq emas, ayniqsa, taraqqiyotning muhim omili ekanligini ochib berdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, barcha jadidchilik harakati namoyondalari singari Abdurauf Fitrat ham o‘z Vatani, millatini erkin va ozod ko‘rishni istadi. Bu yo‘lda “Usuli jadid” maktablarini ochish orqali xalqni ilmli, xat-savodli qilish, ongini oshirish va taraqqiylashgan, ma‘rifatlashgan xalq yordamida mustamlakalikdan qutilishga harakat qildi. “Munozara” asarida ham, yangi jadid maktablarining eski tahsil usulidan farqlarini, afzalliklarini, mamlakat taraqqiyoti, xalq ravnaqi uchun naqadar zarur ekanligini, Buxoro amirligini jaholat botqog‘idan qutulishi, mustamlaka zulmiga barham berishning yagona yo‘li xalqni ilm-ma‘rifatli qilish ekanligini farangi

va mudarrisning bahs-munozaralari yordamida ochib beradi. Asarda eski tahsil usuli va yangi tahsil usuli xususidagi bahs asosida Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy holatlarini ham aks ettirilgan. Chunonchi, asarda yozilishicha, amirlik aholisi dastlab, o'n million bo'lgan, Rossiya hukumati hujumlaridan keyin atigi ikki millionga tushib qolgan va ulardan yetmish ming shaharda istiqot qiladi. Shu qism ham o'n turfa sinfga bo'lgan va o'ndan to'qqiz qismi xat-savodga ham ega emasligi achinarli tasvirlangan. Eng achinarlisi, ziyoli qatlam ya'ni madrasa mudarrislari va mullabachchalar ham jadid va qadim, shia va sunniy kabi muxolifatlar asosida o'zaro ziddiyatda bo'lishgan. Ma'lumki, barcha zamonlarda ham jamiyatning asosini ziyoli qatlam tashkil etib kelgan. Asarda esa, ziyolilarning o'zaro nizolari, bilimsizligi, nosha'riy amallari natijasida dunyo sivilizatsiyasi, taraqqiyotidan orqada qolib ketganligi ko'rsatib berilgan. Umuman olganda, bu asar Buxoroda jadidchilik harakatining rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Natijada, yangi usuldagi jadid maktablari qaytadan ochila boshlandi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. –T., A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007 – 140-b.
2. Fitrat. Tanlangan asarlari. I jild. - T., Ma'naviyat. 2000 – 47-95 b.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy "Munozara" haqida. – Turkiston viloyati gazetasi- 1911-y, 29-sentyabr, 73-son.